

YUNON TILSHUNOSLIGI

*Andijon davlat chet tillari instituti
Ingiliz tili filologiyasi, o'qitish metodikasi va
tarjimashunoslik fakulteti
sharq tillari (xitoy tili) yo'nalishi
102-guruh talabasi*

Meliboyeva Gulzodaxon Isomiddin qizi

Ilmiy maslahatchi: Zaynabiddinova I.M

Annotatsiya: Ushbu maqolada yunon tilshunosligi tarixining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Unda qadimgi yunon faylasuflari va grammatiklarining til haqidagi qarashlari o'rganiladi. Aleksandriya maktabining grammatik modellar yaratishdagi roli alohida ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, yunon tili fonetikasi va morfologiyasi bo'yicha yaratilgan ilmiy an'analar yevropa tilshunosligiga katta ta'sir ko'rsatgani yoritiladi. Zamonaviy yunon tilshunosligi yo'nalishlari – tarixiy grammatika, etimologiya, tipologiya va sotsiolingvistika sohalari ham tahlil qilinadi. Maqola yunon tili o'rganilishi orqali umumiy tilshunoslik nazariyalarining shakllanishida yunon ilmiy merosining ahamiyatini namoyon etadi.

Kalit so'zlar: *yunon tili, tilshunoslik, grammatika, fonetika, morfologiya, etimologiya, tipologiya, sotsiolingvistika, Aleksandriya maktabi, Platon, Aristotel, lingvistik meros*

Аннотация: В статье анализируются этапы формирования и развития греческого языкознания. Рассматриваются взгляды античных философов и грамматистов на природу языка и структуры речи. Особое внимание уделяется роли Александрийской школы в создании первых грамматических моделей. Показано, что исследования по фонетике и морфологии греческого языка оказали значительное влияние на европейскую лингвистическую традицию. Также рассматриваются современные направления греческого языкознания, такие как историческая грамматика, этимология, типология и социолингвистика. Работа демонстрирует ценность греческого научного наследия для развития общетеоретического языкознания.

Ключевые слова: *греческий язык, языкознание, грамматика, фонетика, морфология, этимология, типология, социолингвистика, Александрийская школа, Платон, Аристотель, лингвистическое наследие*

Annotation: This paper examines the formation and development of Greek linguistics across historical stages. It explores the linguistic perspectives of ancient philosophers and grammarians regarding the nature of language and speech structure. The role of the Alexandrian school in establishing grammatical foundations is

highlighted. The influence of Greek phonetic and morphological research on European linguistic traditions is discussed. Modern fields of Greek linguistics such as historical grammar, etymology, typology, and sociolinguistics are also analyzed. The article demonstrates the lasting importance of Greek scholarly heritage in shaping general linguistic theory.

Keywords: Greek language, linguistics, grammar, phonetics, morphology, etymology, typology, sociolinguistics, Alexandrian school, Plato, Aristotle, linguistic heritage

Yunon tilshunosligi qadimgi dunyoda til haqidagi ilmiy qarashlarning shakllanishi va nazariy prinsiplari ilk bor tizimlashtirilgan sohalardan biri hisoblanadi. Antik davrdan boshlab tilning kelib chiqishi, uning ichki tuzilishi, soʻz va maʼno munosabati kabi masalalar yunon mutafakkirlarining ilmiy izlanishlar markazida boʻlgan. Platon, Aristotel, Gomer, Gorgiy kabi faylasuflar til fenomenini mantiq, falsafa va madaniyat bilan bogʻliq holda tahlil qilganlar. Aleksandriya grammatik maktabi esa tilshunoslikni mustaqil ilmiy sohaga aylantirib, grammatik kategoriyalar, fonetik tizim va morfologik tuzilmalarni tasniflash boʻyicha asosiy metodologiyalarni yaratdi. Mazkur maqolada yunon tilshunosligining tarixiy taraqqiyoti, uning asosiy maktablari, yevropa lingvistik merosiga taʼsiri va zamonaviy yunon tilshunosligida rivojlangan yoʻnalishlar tahlil qilinadi.

Miloddan avvalgi V–IV asrlarda yunon faylasuflari tilning mohiyati haqida muhim mulohazalar yuritib boshlagan. Platon oʻzining “Kratil” dialogida soʻzning maʼno bilan munosabatini metafizik, ramziy va falsafiy yondashuvda izohlaydi. Aristotel esa “Kategoriya” va “Ritorika” asarlarida tilning mantiqiy strukturasi, tasnifi hamda nutqning ichki mexanizmlarini tahlil qiladi. Uning soʻz turkumlari haqidagi ishlari keyinchalik grammatika fanining shakllanishiga bevosita asos boʻlgan.

Miloddan avvalgi III asrda Misrning Aleksandriya shahrida tilshunoslikning ilk ilmiy markazi shakllandi. Aristofan Vizantiyskiy, Dionisiy Trakiy, Apolloniy Discol kabi grammatik olimlar soʻzlarning morfologik tahlili, fonetik tizimni tavsiflash va atamalarning standartlashtirilishi bilan shugʻullanganlar. Soʻz turkumlari nazariyasining yaratilishi. Fonetik tizimning tasnifi Grammatik atamalar. tizimining standartlashtirilishi. Matnshunoslik va filologiya metodlarining paydo boʻlishi

Bu esa yevropa grammatik anʼanalariga poydevor yaratdi va lotin, slavyan, german tilshunosliklari aynan yunon modellariga tayangan holda shakllandi. Oʻrta asrlarda yunon tili diniy matnlar va teologik risolalar tili sifatida oʻrgatildi. Vizantiya olimlari yunon grammatika merosini saqlab qolishdi va arab hamda lotin dunyosiga tarqalishiga sabab boʻlishdi. Uygʻonish davrida yunon tiliga nisbatan filologik qiziqish yana jonlandi. Yunon qoʻlyozmalarining Yevropaga koʻchirilishi natijasida ilmiy tahlil

va tarjima metodlari rivojlanib, yunon tili lingvistik tadqiqotlarning asosiy markaziga aylandi.

Xulosa. Yunon tilshunosligi insoniyat ilmiy tafakkurining eng qadimiy va eng ta'sirchan meroslaridan biri sanaladi. Platon va Aristotelning til haqidagi falsafiy qarashlari, Aleksandriya grammatik maktabining ilmiy yondashuvlari va zamonaviy yunon tilshunosligi tadqiqotlari umumiy lingvistika nazariyasining shakllanishiga katta hissa qo'shgan. Yunon tili o'rganilishi tilning tabiati, struktura va jamiyatlardagi funksiyasini anglashda asosiy nazariy manba bo'lib qolmoqda. Shunday qilib, yunon tilshunosligi nafaqat qadimiy ilmiy meros, balki zamonaviy tadqiqotlar uchun ham muhim metodik asosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Aristotel. *Kategoriya va Ritorika*. – Afina: Ellada Nashriyoti, 1996.
2. Sharipova O'., Yo'ldoshev I. *Tilshunoslik asoslari*. Toshkent, 2006.
3. Расулов Р. *Умумий тилшунослик*. Дарслик. Тошкент, 2013.
4. Содиков А., Абдуазизов А., Ирискулов И. *Тилшуносликка кириш*. Тошкент: Ўқитувчи, 1981
5. O'rinboyev B., Musayev A. *Umumiy tilshunoslik*. — Toshkent: Oltin kitob, 2022.
6. Нурмонов А. *Танланган асарлар*. — Тошкент: Академнашр, 2012.